

XX ASR AYOLI

Tolibjonova Yodgora

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti qoshidagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litsey 1-bosqich o'quvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqola asosan, Hadicha Sulaymonova hayoti va ijodi. Uning huquqshunoslikdagi tutgan o'rnini. Ilmiy adabiy merosi haqida yozilgan.*

Kalit so'zlar: *Fanlar akademiyasi, Jinoyat huquqi, SSSR hukumati, professor, dissertatsiya, matonat timsoli.*

ЖЕНЩИНА 20 ВЕКА

Аннотация: *Данная статья в основном написана о жизни и деятельности Хадичи Сулаймановой, ее роли в юриспруденции, научном литературном наследии.*

Ключевые слова: *Академия наук, Уголовное право, Правительство СССР, профессор, диссертация, символ силы духа.*

A WOMAN OF THE 20TH CENTURY

Abstract: *This article is mainly written about the life and work of Hadicha Sulaimanova, her role in jurisprudence, scientific literary heritage.*

Key words: *Academy of Sciences, Criminal law, USSR government, professor, dissertation, symbol of fortitude.*

Xadicha Sulaymonova bu ism ba'zilar uchun tanish, ba'zilar uchun esa umuman notanish, ammo Xadicha Sulaymonova haqida fikr bildirish, uning hayot yo'lini o'rganish nafaqat yosh kadrlar balki, men uchun judayam katta sharaf va o'z o'rnida mas'uliyat talab qiladi. Xo'sh, Xadicha Sulaymonovanning hayot yo'lini o'rganish nega bu darajada mas'uliyat talab qilar ekan, deyishingiz mumkin. Bu savolga javobni esa, maqola davomida aytib o'taman.

Asr boshlari, SSSRning o'tkazayotgan islohotlaridan aziyat chekayotgan insonlar nidosi, bevaqt o'lib ketgan o'zbeginning mard o'g'lonlari. Ayni shu vaqtda Andijon taraflarga bir sayyoh yigit keladi. Ko'rinishidan ziyoli, xushro'y, uzoq sayohat tufayli ko'p tillarda so'zlasha olardi. Ismi esa Sulaymonqul Kelginboyev. U bir mahallaga kelib joylashadi, yashaydi va mahalla a'zolari bilan tanishadi. Mahalladagi eng ziyoli oilaning qizi Otincha bibiga ko'ngil qo'yadi va bir yil o'tar-o'tmas Otincha bibiga uylanadi. Va 1913-yilning jazirama yoz kunlarida ularning oilasida jajji qizaloq dunyoga keladi. Xuddi Xadicha onamizdek bo'lsin deb, ismini Xadicha qo'yishadi. Xadicha tug'ilishi bilan o'tkir nigoh, chuqur qarashlar sohibasi edi. Xadicha 1924-yil akasi Yusuf, opasi

Mo'tabar, ukasi Niyoz bilan teng maktabga borishadi. Bu qanday hol dersiz. Zamon zayli deymizmi yoki SSSRning yangicha islohoti deymizmi bilmadim, ammo o'sha davr insonlari uchun tabiiy hol edi. Matonat sohibamiz yoshlik chog'lardan o'qishga qiziquvchan bo'lib ulg'aydi va doim onasidan otasi qanday inson bo'lgani haqida so'rar edi

Izoh: Xadicha Sulaymonovaning otasi erta vafot etadi va to'rt bolasini Otincha bibining o'zi katta qilgandi.

U ham xuddi otasi kabi ko'p tillarda so'zlasha oladigan inson bo'lishini orzu qilardi. Ammo yosh qizaloq qaysi kasb egasi bo'lishini bilmasdi, qachonki, Nurxon voqeasiga qadar.

Nurxon voqeasi:

XX asr o'rtalari SSSRning murakkab islohotlar davri. 1926- yil o'zbek zamiriga paranjini yechib tashlash to'g'risidagi hujum kompaniyalari boshlandi. Bu islohot sababli barcha ayollar paranjini tashlaydilar, shu qatori iste'dodli san'atkor Nurxon ham. O'sha paytning yonmas olovi hisoblangan Nurxon hayotida 1926-yil mas'um voqea ro'y beradi (sahnaga paranjisiz holda chiqadi. Or-nomusga chidolmagan akasi Nurxonni pichoqlab tashlaydi). Nurxonning akasining jinoyati ochiq sud muhokamasi ko'riladi. Sud majlisida Xadicha Sulaymonovaning ustozisi Tojixon Shodiyeva bilan birgalikda nutq so'zlaydilar. Uning huquqshunoslik sohasiga kirib kelishi, ayni shu voqeadan boshlanadi. Uyg'a shoshib yugurib kelgan Xadicha:

"Aya, huquqshunos bo'laman" deydi onasi esa, bu qiyin kasb ekanligi, ayniqsa, ayol kishi uchun murakkab soha ekanligini aytib o'tadi. Ammo yoshligidan qat'iylik ruhida katta bo'lgan Xadicha huquqshunoslik kasbi uchun harakat qilishni boshlaydi va Sovet Qurilish va Huquq ilmiy-tadqiqot institutining tayyorlov bosqichiga o'qishga kiradi. 1 yildan so'ng uzoq ilmiy mehnat qilib, Jahon Obidova nomidagi Sovet Qurilish va huquqiy ilmiy-tadqiqot instituti ikkinchi kursiga qabul qilinadi. Shu bilan Xadicha Sulaymonovaning huquqiy hayoti boshlanadi. Dastavval, xalq komissiya raisi Fayzulla Xo'jayev bilan o'rindoshlik asosida direktorlik qiladi. Ammo matonat sohibamizning asosiy maqsadi boshliq bo'lish emas, jinoyat huquqi bo'yicha mutaxassis bo'lish edi. Lekin u tanlagan yo'nalish XX asr ayoli uchun juda katta sabr va kuch talab qiladigan kasb edi. O'zingiz o'ylab koring, hali gender tenglik rivojlanmagan, ayollarni jinoyat sohasida aralashuvi yuz bermagan davr edi. Vaholanki, bizning ustozimiz mana shu davr qobiğini yorib chiqolgan birinchi huquqshunos olimi edi.

Institutni tamomlagach, Xalq sudyasi bo'lib ishlaydi. 1935- yilda esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi raisi lavozimiga saylanadi. Bu bilan o'z nazariy bilimlarni oshirishni to'xtatib qo'ymaydi va 1938-yilda Moskvaga "Sovet Jinoyat huquqi" kafedrasida aspiranti bo'lib o'qishga keladi. Bu yerda o'z ilmiy ishi uchun Trayn boshchiligida ma'lumot to'playdi, ammo o'qish tugamay urush boshlanadi va u O'zbekiston Respublikasiga qaytib kelishga majbur bo'ladi. Trayni Xadicha Sulaymonova haqida shunday fikr berib o'tib ketadi: "Bu yosh qizaloq, hatto erkaklar ammolda qiynaladigan ishni qanday eplayapti..?" deya uning harakatlariga qoyil

qoladi.1945-yil 20-iyunda Fanlar akademiyasining Jinoyat va Huquq kafedrasiga o'z dissertasiyasini jo'natadi.1950- yil dissertatsiyaning himoyasi bo'lib o'tadi.Xadicha Sulaymonova o'z dissertasiyasida shariat qonunlari va shariat qozisi haqida erkin fikrlaydi,bu mavzuda dissertasiya yoqlash bir tarafdin xavfli, bir tarafdin juda katta kuch talab qilardi. Shunday qilib, 1951-yil Xadicha Sulaymonova professor sifatida e'tirof etiladi.

Shunday qilib, beqiyos umr yo'lni bosib o'tgan, hatto xalqaro ayollar ro'yxatida 3 ayoldan biri bo'lishga muvofiq bo'lgan bizning muhtarama ustozimiz -Xadicha Sulaymonova uzoq umr ko'rmadi,ammo yangi kadrlar uchun orzular kaliti bo'ldi, desam mubolag'a bo'lmaydi.U 1965-yil 26-noyabr og'ir xastalik sababli vafot etadi. Hatto vafot paytda ham, shogirdi Sa'dulla Polatxo'jayevga eng so'nggi so'zlarini aytib: "Menga hech bo'lmasa yana bir yil kerak edi. Ilmiy fikrlarimni yozib qoldirishim uchun..."deya bu dunyoni tark etadi.

Ko'ryapsizmi, hatto o'limda ham o'zi uchun emas, ilm uchun yashaydigan faqatgina Xadicha Sulaymonova edi. XX asr ayoli deb e'tirof etiladigan ustozimiz nafaqat men, balki butun huquqshunoslik sohasidagi o'quvchilar uchun yuksak ilmiy meros qoldirib keta olgan yagona o'zbek olimasi edi. Inson uchun, hayot uning ne'matlari qanchalik muhim bo'lsa, Xadicha Sulaymonova uchun ham ilm,yosh kadrlar kelajagi shunday muhim edi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Xadicha Sulaymonova faqat huquqshunoslar uchun emas, oddiy ayollar uchun ham ulkan imkoniyatlar eshigini ochdilar.Ular ayollar faqat uy bekasi yoki ona emas, yuristlik sohasida ham samarali faoliyat yurita olishini isbotlab ketgan o'zbeginning mard ayoli edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Uch mashhur o'zbek ayoli" kitobi
- 2.O'zbekistonda sovet jinoyat huquqining paydo bo'lishi va rivojlanish